



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA BUXORO VILOYATIDA IQTISODIY HAYOT VA AHOLINING TURMUSH TARZI

To'rayeva Nigina

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Buxoro viloyatida iqtisodiy hayotning tiklanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Urushdan keyingi davrda sanoat, qishloq xo'jaligi hamda ijtimoiy sohalarida amalga oshirilgan o'zgarishlar, shuningdek aholining turmush tarzi va ijtimoiy ahvolidagi o'zgarishlar yoritiladi. Maqolada tarixiy manbalar va arxiv materiallari asosida Buxoro viloyatining iqtisodiy holati, mehnat resurslari, turmush sharoiti hamda aholining kundalik hayotidagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida urushdan keyingi yillarda hududda iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan bir qatorda aholining turmush darajasida ham muhim o'zgarishlar yuz bergani ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Buxoro viloyati, urushdan keyingi davr, iqtisodiy tiklanish, qishloq xo'jaligi, sanoat rivoji, aholi turmush tarzi, ijtimoiy hayot, mehnat resurslari.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ И ОБРАЗ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ПОСЛЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Тураева Нигина

Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются процессы восстановления и развития экономической жизни Бухарской области в годы после Второй мировой войны. Освещаются изменения, произошедшие в промышленности, сельском хозяйстве и социальной сфере в послевоенный период, а также особенности образа жизни и социального положения населения. На основе исторических источников и архивных материалов рассматриваются экономическое состояние Бухарской области, трудовые ресурсы, условия жизни и изменения в повседневной жизни населения. В результате исследования показано, что в послевоенные годы наряду с процессами экономического восстановления произошли значительные изменения в уровне жизни населения региона.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Бухарская область, послевоенный период, экономическое восстановление, сельское хозяйство, развитие промышленности, образ жизни населения, социальная жизнь, трудовые ресурсы.

ECONOMIC LIFE AND THE LIFESTYLE OF THE POPULATION IN THE BUKHARA REGION IN THE YEARS AFTER THE SECOND WORLD WAR

To'rayeva Nigina

Bukhara State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article analyzes the processes of recovery and development of economic life in the Bukhara region in the years following the Second World War. It highlights the changes that occurred in industry, agriculture, and the social sphere during the post-war period, as well as the lifestyle and social conditions of the population. Based on historical sources and archival materials, the study examines the economic condition of the Bukhara region, labor resources,

living conditions, and changes in the daily life of the population. The research shows that in the post-war years, along with the processes of economic recovery, significant changes also occurred in the living standards of the population.

Keywords. Second World War, Bukhara region, post-war period, economic recovery, agriculture, industrial development, population lifestyle, social life, labor resources.

Urushdan keyingi yillarda Buxoro viloyatida xalqning turmushi ancha og'ir kechdi. Ko'pchilik oilalar o'z boquvchilaridan, ota-onalar farzandlaridan, yoshgina go'daklar otalaridan ayrilib qoldilar. Urush dahshati soya solmagan, oralab o'tmagan oila qolmadi. Qorako'llik bahodirlarning 1854 nafari bu balo-ofat changalidan omon qaytmadilar. Xalqning musibati va yo'qotishi juda katta edi. Biroq besh yil davom etgan mashaqqatli urushning g'alaba bilan tugallanishi kelajakka katta umid uyg'otdi, butun kuch-qudratni faqat tinch hayot maromini tiklashga, iqtisodiyotni tinch hayotga moslashtirishga, urush oqibatlarini barham toptirishga yo'naltirish imkonini berdi.

Xalq oldiga qo'yilgan vazifa zalvorli, ayni vaqtda murakkab edi va uni urushdan keyingi g'oyatda og'ir sharoitda hal etish talab etilar edi. Mamlakat paxta mustaqilligining garanti sifatidagi asosiy o'rin Respublika zimmasiga yuklatilishi, ammo buni amalga oshirishning real imkoniyatlarining yo'qligi vaziyatni og'irlashtirar edi. Paxtachilikni rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

1946-yilning fevralida hukumatning maxsus qarori qabul qilinib, unga ko'ra paxta yetishtirish rejasi ikki yarim baravariga oshirildi. Paxta yig'im-terimi kampaniyasi ustidan yuqori davlat organlarining nazorati o'rnatildi.

1947-yilda Qorako'l paxta tozalash zavodida ishchilar ta'minoti (ORS) bo'limi mudiri bo'lib ishlagan Rabbi Bobojonov shu yillardagi qiyinchiliklar haqida shunday deydi:

«Zavodda 500 nafar ishchi-xizmatchi ishlardi. Ishchilarga har kuniga 500 grammdan non berilardi. Zavoddagi ish sharoiti, mehnat jarayoni juda og'ir edi. Har biri 200 kg vaznli kip toylari qo'l kuchi bilan vagonlarga yuklanardi. U vaqtlarda paxta setka yoki qanorlarda, ot va ho'kiz qo'shilgan aravalarda tashilar edi. Har biri 70–80 kg vaznli paxta solingan qanorlarni orqalab 9 metr balandlikka – buntga olib chiqish nihoyatda mashaqqatli va og'ir edi».

Qisqa muddatlarda paxtachilikni, ayniqsa paxtani yig'ib-terib olishni kompleks mexanizatsiyalashni tugallash vazifasi qo'yilgan edi. Qishloq xo'jalik mashinalarini va paxta terish mashinalarini ishlab chiqarishga zo'r berildi. 1949-yilda SXM-48 rusumli paxta terish kombaynlari dalaga chiqarildi.

Qorako'lda urushdan keyingi yillarda ikkita MTS mavjud bo'lib, ularning bittasi Yangibozorda, ikkinchisi tuman markazida edi. 1945-yilda Buxoro shahridagi traktorchilik kursini tugatgan Qoraun qishlog'ilik Umrzoq Ondayev Yangibozordagi MTSga ishga keldi, «NATI» markali traktor haydovchisiga shogird bo'ldi. Mazkur MTSda Narzulla Bozorov, Hamro Ergashov va Kamol Hamroyev kabi mexaniklar yig'ilgan traktorlarni sozlar edilar. O'rnatilgan qoidaga ko'ra, tumaning hamma traktorlari shu ikkala MTSda to'plangan, navbati bilan jamoa xo'jaliklariga ishlash uchun yuborib turilgan. 1953-yilga kelib traktorlar xo'jaliklarning ixtiyoriga berildi. Shu yili U. Ondayev ham «XTZ» markali traktor bilan o'zining qishlog'iga qaytdi.

1949-yil. Shu yilda Qorako'l markazidan Jiqachiga boradigan yo'l qurilishi amalga oshirildi. Ish jarayoni juda og'ir kechdi. Chunki bu paytda tuman ixtiyorida zamonaviy yo'l qurish texnikasi yo'q edi va ish minglab mehnatkashlarning oddiy qurollari – ketmon, belkurak va zambil bilan bajarildi. Yo'l quruvchilar atrofda tuproqni xalta, zambil va g'altaklarda tashib, uni hozirgi balandlik darajasigacha ko'tardilar. Yo'lning yuza qismi uchun qirlik joylardan maxsus elak va g'alvir orqali kichigi yong'oqdek, kattasi mushtdek keladigan toshlar (sha'g'al, cha'g'il) to'plab olinib, eshaklarga ortilgan kashsha (qamishdan to'qilgan, xurjunga o'xshash yuk tashish vositasi)lar bilan Jiqachigacha tashib keltirilgan.

Mehnat intizomi juda qattiq bo'lib, belgilangan normani bajarish qat'iy talab etilgan.

Eshaklardan yiqilib mayib-majruh bo'lgan ayollar va bolalar-o'smirlar ham anchagina bo'lgan, chunki ular shu paytda asosiy ishchi kuchi hisoblangan.

1950-yillarda qishloq xo'jaligidagi ahvol yaxshi emas edi. Jamoa xo'jaliklaridan davlatga mahsulot yetkazib berishni keskin oshirish talab qilindi. Bunda mahalliy va xo'jalik imkoniyatlari emas, balki davlat ehtiyojlari hisobga olindi. Davlat qishloq xo'jalik mahsulotlarini deyarli tekinga oladigan bo'ldi. Dehqonlarni talashga qaratilgan siyosat ular to'lashga qurbi yetmaydigan soliqlar solish bilan birga olib borildi. Masalan, qishloq ahli bittadan ortiq sigir saqlashi mumkin emas edi, meva beradigan har bir tup daraxtdan ham soliq olinardi.

Shu bilan bir vaqtda dehqonlarning shaxsiy tomorqa xo'jaligi miqdori ham qisqarib bordi. Agar 1950-yilgacha tomorqa uchastkasi 0,15–0,25 ga deb belgilangan bo'lsa, 1950-yil yanvaridan boshlab 0,12–0,15 ga tushirildi. Qirqib olingan yerlar jamoa xo'jaliklari ixtiyoriga o'tkazildi. Qo'shimcha mahsulot olish manbai qisqardi. Kolxozchilar mehnatiga haq to'lash tizimi hali to'liq shakllanmagan edi.

Kolxozchilarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishiga ruxsat yo'q edi. Eng yomoni, ularning erkinlik va huquqlari hamon cheklangan edi. Ular pasport olish huquqiga ega emas edi. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik uchun haq to'lash, mehnat ta'tili va pensiya ta'minoti kolxozchilarga nisbatan qo'llanilmas edi.

Aholining uy-joy, yashash sharoiti va turmush darajasi ham nihoyatda past edi, maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi ham juda sust bo'lgan. O'zbekistonda 1952-yilda 1940-yilga nisbatan deyarli ikki baravar paxta xom ashyosi yetishtirildi. Ammo bu natija tabiiy o'sish hisobiga emas, balki ming-minglab o'zbek dehqonlarini majburiy mehnatga jalb qilish orqali qo'lga kiritilgan edi. Qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligi to'la o'rnatildi.

1953-yilga kelib vaziyat bir muncha o'zgardi. Hokimiyat almashuvi natijasida ayrim islohotlar amalga oshirildi: jamoa xo'jaliklarining qarzlari bekor qilindi, davlatga mahsulot yetkazib berish hajmi kamaytirildi, qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi oshirildi, qishloq aholisi uchun parrandachilik va mayda chorvachilik rivojlantirish rag'batlantirildi, tomorqa soliqlari kamaytirildi.

Natijada aholi turmush tarzida ma'lum darajada ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Biroq muammolar to'liq bartaraf etilmadi. Qishloq aholisining turmush darajasi hamon past edi. Elektrlashtirish va texnika taraqqiyoti qishloqlarda deyarli mavjud emas edi. Masalan, «Oktyabr» jamoa xo'jaligida 1957-yilda yerga ishlov berishning asosiy qismi hali ham ot qo'shilgan kultivatsiya va ketmon chopig'i orqali bajarilgan. Shuningdek qishloq infratuzilmasini yaxshilash uchun ayrim tadbirlar amalga oshirilgan: kasalxona, tug'ruqxona va 850 o'rinli klub binosi qurilgan. Umuman olganda, O'zbekistonda, jumladan Buxoro viloyatida ijtimoiy mehnat intizomini mustahkamlash hamda iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish maqsadida sanoat ishlab chiqarishi va qurilish sohasida ham ayrim tashkiliy choralar ko'rilgan. Masalan, sanoat uchun kadrlar tayyorlash, ishchilarning texnik va madaniy saviyasini oshirish, mehnat intizomini kuchaytirish hamda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ayrim hollarda mehnat intizomini buzish, ishchilarning ro'yxatdan o'tmasdan ishlashi yoki hujjatsiz yurishi kabi holatlar ham qayd etilgan. Masalan, 1970-yillarda Buxorodagi «Buxoragazsanoatqurilish» obyektlarida Bolgariya Xalq Respublikasidan kelgan ishchilar bilan bog'liq ayrim tashkiliy muammolar yuzaga kelgan. 1974-yilda ushbu qurilish obyektlarida 450 nafar ishchi va muhandis faoliyat yuritgan..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лебедев В. М. Правовые вопросы стимулирования дисциплины труда // Вестник Московского университета. Серия «Право». – 1969. – № 1. – С. 63.
2. Директивы КПСС и Советского правительства по хозяйственным вопросам: сборник документов. – Т. 4. – М.: Госполитиздат, 1958. – С. 649.
3. Смирнов Н. Понятие правонарушения в сфере трудовых отношений и его виды. –

- MockBa, 1965. – C. 71–73.
4. O‘zbekiston SSR tarixi. Qadimgi davrlardan hozirgi kunlargacha. I. Mo‘minov tahriri ostida. T., Fan, 1974.
 5. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi. T., O‘zbekiston, 1977.
 6. O‘zbekiston xalqlari tarixi. 1-jild. T., Fan, 1992.
 7. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. T., Sharq, 2000.
 8. Mirzaqulov B.T. Qorako‘l qishloqlari toponomikasi to‘g‘risida // Tarixiy xotira. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2009.